

# FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida"gi 274- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalgaga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiqu qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

38 890  
112,9 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

37 598  
110,7 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar  
(2020-yilda)



3 322  
63,9 %

### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalgaga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)*




### **Mas'uliyati cheklangan jamiyat**


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zлari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyatি:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyatи hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatları bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatları bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatи ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-iyul oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-iyul oylarida 3 322 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 136 ta, xususiy korxonalar – 556 ta, oilaviy korxonalar – 474 ta, unitar korxonalar – 19 ta va boshqalar – 137 tani tashkil etdi.


## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,7 %), Qo'qon shahar (13,2 %), Marg'ilon shahar (10,0 %), Uchko'prik tumani (5,3 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Oltiariq tumani (4,6 %), Quva tumani (4,6 %), O'zbekiston tumani (4,4 %), Buvayda tumani (4,3 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (3,8 %), Bag'dod tumani (3,6 %), Rishton tumani (3,3 %), Qo'shtepa tumani (3,1 %), Quvasoy shahar (3,1 %), Beshariq tumani (3,1 %), Furqat tumani (2,4 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,8 %), Qo'qon shahar (12,8 %), Marg'ilon shahar (10,0 %), Uchko'prik tumani (5,1 %), Dang'ara tumani (4,1 %), Oltiariq tumani (5,7 %), Quva tumani (5,6 %), O'zbekiston tumani (4,1 %), Buvayda tumani (4,2 %), Toshloq tumani (5,3 %), Farg'ona tumani (4,4 %), Bag'dod tumani (4,3 %), Rishton tumani (4,0 %), Qo'shtepa tumani (2,7 %), Quvasoy shahar (4,0 %), Beshariq tumani (2,9 %), Furqat tumani (2,2 %), So'x tumani (2,5 %), Yozyovon tumani (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.



## Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 4 168 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 638 taga yoki 118,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 974 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 480 taga yoki 113,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 474 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 333 taga yoki 58,7 % ga kamayganini ko'rish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	2 533	3 494	3 974
shu jumladan:			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	241	271	275
Sanoat	1229	1609	1810
Qurilish	34	32	51
Savdo	337	672	824
Tashish va saqlash	58	77	76
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	339	467	529
Axborot va aloqa	31	31	34
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	19	30	43
Boshqa turlar	245	305	332

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra

442 tani tashkil etib, ulardan 429 tasi yoki 97,1 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 80 taga yoki 122,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 31 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*



■ Qo'shma korxonalar   ■ Xorijiy korxonalar

2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
**(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)**


	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>175</b>	<b>232</b>	<b>359</b>	<b>429</b>
<i>Shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	4	24	26
Sanoat	126	166	210	248
Qurilish	4	5	9	12
Savdo	14	26	63	75
Tashish va saqlash	4	4	6	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	9	13	15
Axborot va aloqa	3	2	4	4
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	5	7	8
Boshqa turlar	10	11	23	29

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni  
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)**


	<b>Jami</b>	<b><i>shundan:</i></b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>442</b>	<b>298</b>	<b>144</b>
Oltiariq tumani	20	13	7
Qo'shtepa tumani	8	5	3
Bag'dod tumani	10	8	2
Buvayda tumani	8	7	1
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	17	10	7
Uchko'prik tumani	15	10	5
Rishton tumani	12	10	2
So'x tumani	4	3	1
Toshloq tumani	14	10	4
O'zbekiston tumani	21	19	2
Farg'ona tumani	26	15	11
Dang'ara tumani	18	9	9
Furqat tumani	5	2	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	151	102	49
Qo'qon shahar	56	34	22
Quvasoy shahar	25	20	5
Marg'ilon shahar	21	16	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan korxonalarning asosiy qismi Farg'ona shahrida 151 ta (umumiy miqdordagi ulushi 34,2 %), Qo'qon shahar 56 ta (12,7 %), Quvasoy shahar 25 tani (5,7 %), Farg'ona tumani 26 ta (5,9 %), Qo'shtepa tumani 8 ta (1,8 %), Beshariq tumani 6 ta (1,4 %) hamda So'x tumanida 4 tani (0,9 %) tashkil etadi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**  
**(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)**

	Kichik tadbirkorlik subyektlari soni		01.08.2020 jamiga nisbatan %
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>28 311</b>	<b>32 653</b>	<b>100,0</b>
Oltiariq tumani	1 261	1 493	4,6
Qo'shtepa tumani	875	970	3,0
Bag'dod tumani	920	1 097	3,4
Buvayda tumani	1 268	1 436	4,4
Beshariq tumani	770	899	2,8
Quva tumani	1 207	1 451	4,4
Uchko'prik tumani	1 545	1 778	5,4
Rishton tumani	794	948	2,9
So'x tumani	623	732	2,2
Toshloq tumani	1 247	1 466	4,5
O'zbekiston tumani	1 243	1 415	4,3
Farg'ona tumani	972	1 160	3,6
Dang'ara tumani	1 385	1 589	4,9
Furqat tumani	618	725	2,2
Yozyovon tumani	530	629	1,9
<b>Farg'ona shahar</b>	<b>5 135</b>	<b>5 769</b>	<b>17,7</b>
Qo'qon shahar	4 035	4 516	13,8
Quvasoy shahar	841	1 019	3,1
Marg'ilon shahar	3 042	3 561	10,9

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (13,8 %), Qo'qon shahar (12,7 %), Marg'ilon shahar (10,0 %), Uchko'prik tumani (5,1 %), Dang'ara tumani (4,1 %), Oltiariq tumani (5,7 %), Quva tumani (5,6 %), O'zbekiston tumani (4,1 %), Buvayda tumani (4,2 %), Toshloq tumani (5,3 %), Farg'ona tumani (4,4 %), Bag'dod tumani (4,3 %), Rishton tumani (4,0 %), Qo'shtepa tumani (2,7 %), Quvasoy shahar (4,0 %), Beshariq tumani (2,9 %), Furqat tumani (2,2 %), So'x tumani (2,5 %), Yozyovon tumani (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri-axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtি-vaqtি bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.**

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIY STATISTIKA" with various links like "Elon qilish taqvimni", "Metamalumotlar", etc. The central part of the page shows a form for "Korxonalar" (Enterprises) registration. The form fields include "Xizmatlar ro'yxati", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobtolar ro'yxati", and "Korxonalar pasporti". Below the form, there are buttons for "STIR kodini kiritning", "Rasmidagi kodni kiritning", and "Qidiruv". To the right, there is a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Aholini ro'yxatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", "Press-relizlari", "Choraklik natijalar", "Nashrlari – statistika haqida", "Uslubiy materiallar", and "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar". The bottom of the sidebar has a note about using Internet Explorer or Windows browser.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyat Statistika  
boshqarmasi Statistik  
registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:73 249-87-34**